

TAFAKKURNING INSON TARAQQIYOTIDA O'RNI.

*Umarova Dilshoda,
O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti 1-bosqich talabasi.*

Tayanch so'zlar: tafakkur, atrof, hodisa, inson, sezgi, idrok, tasavvur, xulosa, ongli, bilim, xato, oqibat, yaxshilanishlar, dastlab, sust, omil, kitob o'qish, turtki, sinovlar, tajriba, bemisl.

Reja:

1. Tafakkur nima?
2. Tafakkur insonga nega kerak? va inson rivojlanishida tafakkurning qanchalik o'rni bor?
3. Tafakkurni qanday oshirish mumkin?

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz.

Yanada tushunarli qilib aytadigan bo'lsak, insonning atrofda bolayotgan voqealarga munosabati, qanday fikrda bolishi, bo'layotgan ishlardan anglashlar, xulosalar olishi insonning tafakkuri hisoblanadi.

Inson tafakkur qilish orqali oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratadi, o'tmishdagi xatolaridan xulosa qiladi va ongini oshiradi.

Tafakkur insonga nima uchun kerak va inson rivojlanishida tafakkurning qanday o'rni bor?

Inson yer yuzidagi yagona ongli mavjudot ekanini hammamiz bilamiz. Insonning ongli ekani uni tafakkur qilishga undaydi.

Tafakkur inson hayoti uchun eng zarur qobiliyatlardan biri hisoblanadi. Inson yashay olishi uchun tafakkur kerak. Masalan, inson bir marta ehtiyotsizlik bilan yugurdi va yiqildi, jarohat oldi deylik. U endi, albatta, tafakkur qiladi-ki, endi ehtiyot bo'lib yugursa, yiqilmaydi. Keyingi safar endi u ehtiyot bo'ladi va yiqilmasdan

yugurishni uddalaydi. Ya'ni o'tmishdagi xatosidan orqali xulosa chiqarish va sog'omon bo'lish uchun ham, avvalo, tafakkur kerak. Inson yashar ekan, bilim oladi, o'rganadi. Uning bilim olishi ham tafakkur orqali bo'ladi. Bir kun o'quvchi dars tayyorlamadi va tengdoshlaridan ortda qoldi, bu esa keyinchalik qiyinchilik bilan tuzatildi. Demak, o'quvchi tafakkur qilsa, keyingi safar hamma darslarni o'z vaqtida o'zlashtiradi va bu xatoga boshqa yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi.

Inson hayotda o'z o'rnini topishi esa yuqoriroq darajadagi tafakkurni talab etadi. Chunki bu katta hayot va bitta xato tuzatib bo'lmaz oqibatlariga olib kelishi mumkin. Inson boshqa bir odamning yaxshi yoki yomon ekanligini tafakkur orqali bilib oladi. Agar o'sha inson ko'p yolg'on gapirishini va boshqa yomon illatlari borligini bilsa ya'ni tafakkur qilsa, endi undan uzoqroq yuradi va u insonga boshqa ishonmaydi.

Tafakkurni qanday oshirish mumkin?

Inson yaratilgan davridan beri ya'ni qadim qadimdan shu paytgacha bo'lgan hayotidagi yaxshilanishlar, o'zgarishlar tafakkur orqali bo'lgan. Buni tarixni o'qish orqali bilib olish juda oson. Demak, shuni bemalol ayta olamizki, inson tafakkuri bir xil bo'lmaydi, u dastlab juda sust bo'ladi va vaqt o'tgan sari rivojlantirilsa, tafakkur yuqori darajaga chiqadi va inson hayotini yaxshi tarafga o'zgarishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Inson tafakkur orqali, hayotini kundan kunga yaxshilaydi va vaqtdan unumli foydalanadi.

Kitob o'qish va uni tahlil qilish tafakkurni oshirishning eng foydali yo'llaridan hisoblanadi. Chunki kitob o'qigan sari, unda hikoya qilinayotgan voqea-hodisalar ongli insonni fikrlashga undaydi. Vaqt o'tgan sari kitob o'qish insonni ko'proq tafakkur qilishga undaydi va natijada, u atrofida bo'layotgan har bir voqeadan xulosa oladi va fikr qiladi. Bu esa, tabiiyki, uni atrofdagilar qilayotgan xatolarni qilishdan qaytaradi, hayotini yaxshilashiga, foydali ishlar bilan shug'ullanishiga turtki bo'ladi.

Bundan tashqari, inson yashagani sari, tajribasi ortib boraveradi. Ba'zi insonlar yoshligidan ko'p sinovlarga uchraydi va yoshligidan tafakkuri yuqori darajada rivojlanadi va katta bo'lganda u atrofidagi tengdoshlaridan ancha aqlliyoq va ishbilarmonroq bo'lib yetishadi.

Ba'zilar esa yoshi katta bo'lsa-da, tafakkur darajasi past bo'ladi, chunki ular ko'p sinovlardan, hayot chig'irig'idan o'tishmagan bo'ladi, natijada ko'p tafakkur qilmasliklari oqibatida, tafakkur darajalari yuqori darajaga chiqmaydi.

Shu o'rinda, inson har kuni kun yakunida kun davomida qaysi rejalarini amalga oshira olgani va qaysilarini qila olmaganini va aynan nima uchun ba'zi xatolarni qilganini tahlil qilishi kerak. Bu bir kunlik tafakkur va bu kamida 10-15 daqiqa davomida bo'lishi zarur. Shu odat orqali ham keyingi kunni ancha samaraliyoq reja qilish va qilinadigan xatrolarni anchaga kamaytirish mumkin.

Demak, tafakkur inson hayotida bemisl o'ringa ega ekan va har bir inson o'z tafakkurini rivohlantirishi kerak ekan, chunki shu orqaligina ular hayotda kamroq xato qilishlari, o'z hayotlarini yaxshi tarafga o'zgartirishlari va vaqtlarini samarali sarflashlari mumkin bo'lar ekan.

Foydalanilgan manbaala:

1. <https://uz.m.wikipedia.org>

